

O'zbekiston – Germaniya: ilm-fan va ta'limdagi hamkorlikning yangi bosqichi

Ijtimoiy taraqqiyotning global va ustuvor tamoyillaridan biri – inson faoliyati barcha bosqichlarida, jumladan, fan va ta'lim sohalarida namoyon bo'ladigan integratsiya jarayonidir.

O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasida fan va ta'lim sohasidagi hamkorlik ko'p yillik tarixga ega. Xususan, germaniyalik olimlar, ilmiy doira vakillari azaldan yurtimiz tarixi, milliy urf-odat va an'analariga katta qiziqish bilan qaragan. O'z navbatida, mamlakatimiz keng jamoatchiligi ham Germaniyaning o'tmishi va zamonaviy rivojlanish yo'li, ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini o'rganishga alohida ahamiyat bergan.

Shu o'rinda "Markaziy Osiyo" atamasi birinchi marta taniqli nemis olimi Aleksandr fon Humboldt tomonidan 1843-yili Parijda nashr etilgan uch jildli "Markaziy Osiyo tog' tizmalarini tadqiq qilish va iqlimlarni taqqoslash" asarida qo'llanilganini eslash o'rinli. Unda olim ichki sug'orish tizimi va tog' tizmalarini o'rganish asosida Markaziy Osiyoni alohida, o'ziga xos mintaqa sifatida tasvirlaydi. Shundan so'ng "Markaziy Osiyo" tushunchasi bugungi kunga qadar geografik atama sifatida qo'llanib kelinmoqda.



O'zbekistonning Germaniyadagi elchixonasida bo'lib o'tgan madaniy tadbir

Hozirgi kunda Germaniya ta'lim va kasbga yo'naltirish, ilm va ilmiy tadqiqotlarga keng e'tibor beradigan davlat sifatida tanilgan. Buni Nobel mukofoti sohiblarining 91 nafari ushbu davlat vakillari ekani ham tasdiqlaydi. Bugungi kunda mamlakatimizning 800 dan ortiq talaba-yoshlari, ilmiy tadqiqotchilari Germaniya oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotganini ham ayni shu bilan izohlash mumkin. Ilg'or xorij tajribasini o'rganib, turli sohalardagi zamonaviy texnologiyalarni O'zbekistonda joriy etishni maqsad qilgan yoshlar uchun bunday imkoniyatlar mamlakatimiz tegishli vazirlik va idoralari bilan hamkorlikda Germaniya akademik almashuvlar xizmati, Toshkentdagi Gyote instituti, Konrad Adenauer va Fridrix Ebert nomidagi

jamg'armalarining mamlakatimizdagi vakolatxonalarini, Nemis xalq universitetlari assotsiatsiyasining Xalqaro hamkorlik bo'yicha instituti tashkilotlari tomonidan yaratilmoqda.

Keyingi yillarda ta'lim va ilm-fan sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor, jumladan, yoshlarning xalqaro me'yorlar asosida bilim olishi uchun yaratilayotgan qulay sharoit, ilmiy-tadqiqot loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami Germaniyada katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu mamlakatlarimizning madaniy-gumanitar sohadagi hamkorligini yangi bosqichda rivojlantirishga xizmat qilmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Germaniyaga tashrifi oldidan Berlinda O'zbekiston - Germaniya madaniy hamkorligi bo'yicha qo'shma komissiya majlisi bo'lib o'tdi. Bu ikki davlat o'rtasida gumanitar sohalardagi hamkorlikning yangi yo'nalishlarini belgilab berdi.

Komissiya majlisida mamlakatimizning Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Xalq ta'limi hamda Madaniyat vazirliklari, shuningdek, Fanlar akademiyasi vakillari, O'zbekistonning Germaniya Federativ Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi qatnashdi. Germaniya tomonidan Tashqi ishlar vazirligi, Germaniya akademik almashuv xizmati va Gyote instituti vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda fan va madaniyat, oliy ta'lim, umumta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, nemis va o'zbek tillarini o'rganish, ommaviy axborot vositalari va san'at sohasidagi hamkorlik, madaniy yodgorliklar va madaniy qadriyatlarni tiklash kabi yo'nalishlarda ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Ushbu yo'nalishlarda hamkorlikni davom ettirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Germaniyalik hamkorlar Toshkent shahridagi 60-umumta'lim maktabiga Gyote, Buxoro shahridagi 4-umumta'lim maktabiga Iogann Kristof Fridrix fon Shiller va Samarqand shahridagi 51-umumta'lim maktabiga Vilgelm fon Gumboldt nomlari berilganini katta mamnuniyat bilan qayd etishdi.

Majlis yakuni bo'yicha erishilgan kelishuvlar O'zbekiston bilan Germaniyaning madaniy, ilmiy-ma'rifiy sohalardagi hamkorligini yanada kengaytirish, barcha darajadagi ishtirokchilarning bevosita uchrashuv va muzokaralariga ko'maklashish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Sirojiddin Mirzayev,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti.